

INFORMATIKA FANINI O'QITISHNI TASHKILLASHDAGI DIDAKTIK PRINTSIPLAR VA USULLAR.

Djamolova Diyora.


Farg'ona viloyati, Beshariq tumani

I-son kasb-hunarmaktabi, biologiya fani o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada informatiaka fanini o'qitishda ta'lif samaradorligini oshirish yo'llari haqida fikr yurutilgan. Hozirgi ta'lif tizimida bilimlarni egallashning yangi kontsepedagogik texnologiyasi va informatiaka fanini o'qitishda ta'lif samaradorligini oshirishda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning yo'llari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: individual, guruhli, frontal, o'qitish shakllari, EHM.




Informatika didaktikasi va o'qitish metodikasida o'qitishning tashkiliy shakllari markaziy o'rinalidan birini egallaydi. O'qitishning tashkiliy shakllari deganda o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlarini tashkil etish yo'llari tushuniladi. O'qitishning tashkiliy shakllari bir qator mezonlar bo'yicha tasniflanadi: o'quvchilar soni, o'qish joyi va boshqalar. Birinchi mezon bo'yicha tasnifni ko'rib chiqamiz. O'quvchi faoliyati ta'lif jarayoni qatnashchilari orasidagi o'zaro munosabatlarning bir bo'lagidir. O'quvchilarning individual faoliyatini nazarda tutuvchi shakllar ham mavjuddir. Boshqa shakllar esa, masalan EHMda amaliy mashg'ulot, guruhda ishlashni talab etadi. O'qitishning tashkiliy shakllarining ko'pchiligi frontaldir.



O'qitishning guruhli shakli.

«AQSHda ta'lif bo'yicha instrukturalar guruhli ish olib borishni tavsiya etadilar. Zamonaviy tadqiqotlar, o'qitishning ushbu shakli o'quvchilar orasidagi dushmanlik munosabatlarining oldini olishning samarali taktikasi ekanligini ko'rsatmoqda. Guruhda ishslash tajribasi tafakkur uslubini «biz va ular» «dan» «biz» ko'rinishiga o'zgartiradi. Guruhda ishlaganda avvalo sinfning o'quv makoniga e'tibor berish lozim. Kichik guruhlarda ishslash yuzma-yuz ishslashni taqozo etadi. Shu sababli o'tirish joylarini an'anaviy, ya'ni o'quvchilar o'zidan oldingi o'quvchi boshining orqa tomonini va o'qituvchining yuzini ko'radigan holatda joylashtirish maqsadga muvofiq emas. O'tirish joylarining o'rnini o'zgartirish, guruhda muamola qilish imkonini beradigan kichik zonalar tashkil etish kerak bo'ladi. Bunda kichik guruhlar va har bir guruhdagi o'quvchilar sonini hisobiga olish lozim (uch, to'rt, yetti va xokazo).

Guruh bilan ishslash usuliga bog'liq holda o'tirish joylarini joylashtirishning quyidagi variantlari mavjud:



E'tibor berilishi lozim bo'lgan navbatdagi masala kichik guruhlarni shakllantirish jarayonini yaxshilab o'rganib chiqishdan iborat. O'quvchilar guruhlarda nafaqat o'quv masalasini yechishi, balki kommunikativ ko'nikmalarni ko'rsata olishi va mustahkamlashlari ham kerakligini yodda saqlash lozim. Shuning uchun avval boshdan bir-birining boshlagan ishini qo'llab quvvatlashga

xoxishi borligi va tayyor ekanligida o'z aksini topadigan guruhning emotsional ilimi to'g'risida ham qayg'urish kerak bo'ladi.

Kichik guruhlarga birlashishda o'quvchilarning o'z istaklariga qarash mumkin. Bunda yondashishning ijobiy tomoni o'quvchilarning o'zaro shaxsiy xayriroxliklarini hisobga olinishidir. Lekin salbiy tomonlari ham bor. Natijada kuch bo'yicha bir-biriga teng bo'limgan guruhlar tashkil qilinishi mumkin va hamkorlikda olib borilgan faoliyat natijalari ham keskin farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, guruhda do'stona, lekin o'zibo'larlikka asoslangan muxit yuzaga kelib, o'zaro muloqotda bo'lishga qiziqish, o'quv masalasini yechish jarayonini siqib chiqarishi mumkin.

Guruhlarni shakllantirganda yechiladigan masalaning mazmunini ham e'tiborga olish lozim. Masalan, o'qituvchi har bir guruhga masalaga qarama-qarshi nutai nazarda bo'lgan o'quvchilarni kiritishi mumkin. Natijada masalani yechish jarayonidagi muxokama jonli va qiziqarli chiqadi. Yoki aksincha, a'zolari bir soxaga qiziqishlari bo'lgan tavsirlanuvchi gamogen guruhlarni tuzish ham mumkin. Quyida sinf o'quvchilarni tez va qiziqarli tarzda kichik guruhlarga bo'lish yo'llaridan bir nechtasini keltirib o'tamiz. Ushbu usullar sinfni har birida 6 tadan o'quvchi bo'lgan 6 ta kichik guruhlarga bo'lishga imkon beradi. Guruhdagi o'quvchilar sinfini 5, 7 yoki 8 taga o'zgartirib, sinfni 5, 7 yoki 8 ta guruhga ajratish ham mumkin:

qog'ozning kichik bo'laklariga A1, A2, A3, A4, A5, A6, B1, B2, B3, ... va xokozo belgilarni yozing. Stollarni A, B, V, G, D, Ye deb belgilang. SHundan so'ng qog'ozlarni ishtirokchilarga (o'quvchilarga) tarqating va unda yozilgan harfli stol atrofiga o'tirishni tavsiya eting.

6 ta rasm tayyorlang va har birini 6 ta bo'lakka bo'ling. Bo'lakchalarni aralashtirib stol ustiga qo'ying va ishtirokchidan (o'quvchidan) bittadan bo'lakchani tanlab olishni iltimos qiling. Shundan so'ng o'quvchilar bo'lakchalarni birlashtirib, yaxlit rasmni xosil qilishlari va bitta stol atrofiga o'tirishlari kerak bo'ladi.

Oltita ranglardan 6ta qizil, 6ta oq, 6ta qora, 6ta sariq, 6ta ko'k, 6ta yashil jami 36 ta kartochka tayyorlang. Sinfdag'i o'quvchilarning har biri o'ziga yoqan rangli kartochkani tanlab oladi va bir xil rangli kartochkani olgan o'quvchilar bitta stol atrofiga o'tirishadi.

Barcha o'quvchilar 1, 2, 3, 4, 5, 6 raqamlar bo'yicha tartib bilan sanalishadi. SHundan so'ng 1 raqamlilar bitta guruhga, 2 raqamlilar ikkinchi guruhga va xokazo birlashishadi.

O'qituvchi biror bir belgi bo'yicha jamlangan predmetlar nomi yozilgan yoki rasmlari tushirilgan kartochkalarni oldindan tayyorlaydi. Masalan:

daraxtlar - olma, olcha, o'rik, nok, xurmo, shaftoli;
gullar – lola, atirgul, nartsiss, gladiolus, chinnigul, boychechak;
idish-tovolar – qozon, choynak, piyola, likopcha, qoshiq, cho'mich va xokazo.

O'quvchilar kartochkalarni tanlaydilar va belgilar bo'yicha (daraxtlar, gullar, idish-tovolar va xokazo) buyrularga birlashadilar.

Informatika fanini o'qitishda asosiy quyidagi o'qish shakllari foydalanaladi:

- ilmiylik;
- sistemali va izchil bayon qilishdir.
- tushunarlilik;
- ko'rgazmalilik;
- nazariyaning amaliyot bilan bog'lanishi;
- faollik.

bilimlarni mustahkam o'zlashtirish

Ilmiylik. Ilmiylik o'r ganilayotgan masalalarni yuzaki qarash yoki unga oid ma'lumotlar soni bilan emas, balki masalaning moxiyatiga chuqur kirib borish bilan belgilanadi. O'quvchilarga yetkazilayotgan barcha bilimlar, ma'lumotlar to'g'ri bo'lib, zamonaviy fan nazariyasiga muvofiq kelishi lozim. Informatika – tez rivojlanib borayotgan fan. Keyingi o'n yil ichida informatikada juda ko'p yangi tushunchalar, yangi nazariyalar paydo bo'ldi, yangi EHMLar va ularning qurilmalari yaratildi. Shuning uchun o'quv kursining mazmuni va tuzilishi doimo 40-sod 2-to'plam yanvar 2023

yangilanib turishi kerak. Informatika kursi qanchalik elementar bo'lmasin, u har doimo ilmiy bo'lishi lozim.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

M.Aripov, M.Muhammadiyev. Informatika, informasion texnologiyalar. Darslik. T.: TDYuI, 2004 y.

1. C.C.Fulomov va bo'shalar. Axbotor tizimlari va texnologiyalari. Darслик. Тошкент, "Шарқ", 2000 й.

2. M.Mamarajabov, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi va Web-dizayn. Darslik. T.: "Cho'lpon", 2013 y.

3. U.Yuldashev, M.Mamarajabov, S.Tursunov. Pedagogik Web-dizayn. O'quv qo'llanma. T.: "Voris", 2013 y.

4. M.Aripov, M.Fayziyeva, S.Dottayev. Web texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.: "Faylasuflar jamiyati", 2013 y.

5. B.Mominov. Informatika. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur-bo'stoni", 2014 y.